

**ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ASARI:
OBRAZLAR TALQINI**

*Urganch RANCH texnologiya universiteti talabasi
Ollayorova Feruza*

Kalit so'zlar: Anvar bosh qahramon, Salim bo'yoqchining o'g'li, Solix maxdumning asrandisi, Ra'no Solix maxdumning qizi, Nigorxonim Solix maxdumning xotini.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani o'zbek adabiyotining eng yorqin asarlaridan biri bo'lib, unda hayot, muhabbat, adolat va xiyonat kabi mavzular aks etgan. Asarning badiiy qiymatini belgilovchi muhim jihatlaridan biri undagi qahramonlar obrazlaridir. Qodiriy xarakter yaratishda realistik uslubga tayanib, o'sha davr jamiyatining ijtimoiy qatlamlarini yorqin aks ettirgan. Ushbu maqolada roman qahramonlarining xarakteristikasi, ularning asardagi o'rni va yozuvchi yaratgan badiiy vositalar tahlil qilinadi.

“Mehrobdan chayon” – o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning ikkinchi yirik asari 1928-yil fevralda yozib tugatilgan. Roman birinchi marta 1929-yil Samarqandda bosilib chiqdi. Roman mavzusi XIX asr hodisalari “xon zamonlari” davridagi o'zboshimchaliklarni ko'rsatishga qaratilgan bo'lsa-da, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli singdirilgan.

Romanda Anvar bilan Ra'noning sevgi sarguzashti, qalb nazokati shoirona tarannum etilgan.

Maxdumning uylanishi va maktabdorlig'i

Solih maxdum otasining vafotida yigirma yoshliq talaba edi. Otasi marhum bo'lg'andan so'ng o'zidan bir necha yosh kattaroq og'asi Marg'ilong'a imom bo'lib oilasi bilan ko'chib ketdi. Solih maxdum onasi va o'n olti yoshliq Naima ismlik singlisi bilan Qo'qonda qoldi. Birar joydan kelim bo'lmag'anliqdan bu oila ko'b tanglikka tushib oxirda Solih maxdum tahsilni tark etishka, qorin to'ydirarliq bir kasb izlashka majbur bo'ldi.

Albatta, Solih maxdum og'irroq kasbni uxda qilolmas, imomatka bo'lsa soqoli chiqmag'anliqdan yarolmas edi. Ko'b ozor chekib nihoyat qorindosh-urug' va mahalla kishilarining kengashlari bilan o'z uyiga maktab ochdi, mahalladan besh-o'nta bola yig'di va yeng shimarib maktabdorliqqa boshladi.

Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham quyoshda bir oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xshash Ra'noning ko'zida ham buning asari ko'ruladir: mudavvarga moyilroq jodu ko'zi kishiga qattiq qarag'anda qoraliqdan boshqacha yana bir turluk nur sochar edi. Kipraklari ostida nafis bir surma

doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham ko'ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko'tarilish ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqidg'a berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turg'an nafis irinlarining yuqorig'i qismida sezilar-sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi cho'ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo'lmas, kishiga kulib qarag'anda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'lar, go'yo bizga chin ra'no guli ochilg'an holatda ko'rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar Ra'noning orqa, o'ngini tutib yotar, qaddi uzunliq bilan qisqaliqning o'rtasi, do'nduq barmoqlarining jimjilog'ida xina gullari, har holda bu qiz yolg'iz. Qo'qonningg'ina emas, umuman Farg'onaning kuylariga qo'shulib maxtaladirg'an go'zallaridan edi.

Anvar yoshlig'ida bo'shangg'ina bir bola edi. O'z tenggi bolalar bilan oz aloqa qililar, ularga kam aralashar va ortiqcha o'ynab-kulmas, hamisha uning ko'zida bir mung yotar edi. Bu holat balki oila baxtsizligidan, ota-ona bag'rida yayramag'anliqdan tug'ilg'andir, desak, uning ikki og'asi munday emas edilar. Bir onadan necha xil bola tug'iladir, deganlaridek, Anvarning yaratilishi og'alarig'a nisbatan boshqacha edi. Maxdumning uyida tura boshlag'ach, Anvarda bir oz o'zgarish ko'rildi. Shunda ham bolalar bilan aloqasini eskicha yurutib, faqat Ra'no yonidag'ina o'yin-kulki bolasig'a alishinar, Ra'noni yetaklab boqchag'a, ko'chadagi katta suv bo'ylarig'a chiqib hamrohini boqchadag'i gullarning ismi, uchib yurg'an qushlarning navi, katta oqar suvlar va ayniqsa, Ra'no kabi yosh qizchalar uchun bu suvlarga yiqilish xavfi va shuningdek, boshqa masalalar bilan uni tanishdirar, ko'chada o'lik ko'targanlarni ko'rsa, birarta bolaning otasi yoki onasi o'lganligini so'zlab, buning orqasidan: "Menim ham onam o'lganda o'shandoq qilib ko'targan edilar... Men ham shu boladek mozorg'a yig'lab borg'an edim", deb qo'yar edi. Ra'no ham Anvarning so'ziga diqqat bilan quloq solar va ko'pincha hisobsiz savollar ila uni ko'mib tashlar, lekin Anvar zerikmas, har bir so'roqqa javob berib, Ra'noni qanoatlandirishg'a tirishar edi.

Anvar yosh bo'lsa ham jiddiy va kichkina miyasi muhokamaga qobil, boshqa kishilar ustiga tushkan baxtsizlikdan ham mutaassur bo'lg'uchi edi.

Xulosa: Ushbu maqola orqali sohir so'z ijodkori, romannavis Abdulla Qodiriyning so'z mahorati, ijodkorlik qobiliyati xususida so'z boradi. Shu bilan birga, uning mashhur romanlaridan biri bo'lmish – "Mehrobdan chayon" romani talqinga tortilib, unda qahramonlarning badiiy nutqidagi o'ziga xosliklar tahlil qilindi. Ijodkorning asar qahramonlaridan – Anvar, Ra'no, Solih mahdum, Safar bo'zchi kabilar nutqini induviduallashtirish mahorati o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy „Mehrobdan chayon“ Toshkent-2019
2. Izzat Sulon. O'zbek adabiy tanqidi. Abdulla Qodiriy va uning "Mehrobdan chayon" romani. – Toshkent: "Turon-iqbol", 2011. – B.70.
3. Adabiyot. 7-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent. 2022